

MAQOLLAR ORQALI INGLIZ TILINI O'RGATISH USULLARI

Madaminova Sarvinoz Muzaffar qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti-ingliz tili yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili darslarida xalq maqollaridan foydalanish usullari va ularning ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqollarning talaffuzni yaxshilash, leksik boylikni oshirish, og'zaki nutqni rivojlantirish va o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqollardan samarali foydalanish metodikasi, mashqlar va dars jarayonida ularni qo'llashning amaliy jihatlari keltiriladi. Maqolada xalq donishmandligi va fikrining o'quvchilarga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi, shuningdek, tarjima va qiyosiy o'rganish orqali ona tili lug'at boyligini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: maqol, xalq hikmati, ingliz tili, ta'lim, tarbiya, talaffuz, leksika, og'zaki nutq, metodika, tarjima

Аннотация: Статья посвящена изучению методов использования народных пословиц на уроках английского языка, а также их образовательного и воспитательного значения. В работе анализируется роль пословиц в улучшении произношения, расширении словарного запаса, развитии устной речи, а также формировании логического мышления и моральных качеств учащихся. Представлены практические аспекты применения пословиц на занятиях, примеры упражнений и эффективные методики преподавания. Статья подчеркивает влияние народной мудрости на учеников, а также возможности сравнительного изучения и перевода для обогащения словарного запаса родного языка.

Ключевые слова: пословица, народная мудрость, английский язык, образование, воспитание, произношение, словарный запас, устная речь, методика, перевод

Abstract: This article is devoted to exploring the methods of using folk proverbs in English lessons and their educational and moral significance. The study analyzes the role of proverbs in improving pronunciation, enhancing vocabulary, developing oral speech, and fostering logical thinking and moral values among students. In addition, practical aspects of applying proverbs in classroom activities, exercises, and effective teaching methods are presented. The article emphasizes the influence of folk wisdom on students, and highlights the possibilities of comparative study and translation in enriching the native language vocabulary.

Keywords: proverb, folk wisdom, English language, education, morality, pronunciation, vocabulary, oral speech, methodology, translation

Tilning tabiati va mohiyati, uning jamiyatdagi roli, tuzilishi hamda bu tuzilmani tashkil etuvchi qismlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, tilning ishlash mexanizmi va qonuniyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [4, 36]. Bu borada maqollar o'tkir obrazli, hikmatli so'zlar bo'lib, aholi turmush tarzining turli ko'rinishlarini umumlashtiradi va tipiklashtiradi. Maqol uchun fikrning to'liq ifodalanishi va xulosaning yaxlit holda berilishi xarakterlidir.

O'quvchilarni umumiy ta'lim jarayonida, darslarda ingliz va o'zbek xalq maqollari bilan tanishtirish chet tilini amaliy o'rganishda muhim vositalardan biridir. Maqollar nafaqat o'quvchilarni ingliz tilida gapiruvchi xalqlar turmushi va madaniy merosi bilan tanishtiradi, balki ularning ahloqiy tarbiyasiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Darslarda xalq maqollaridan foydalanish amaliy mashg'ulotlarni jonli, qiziqarli va to'laqonli qiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini

rivojlantirishga yordam beradi hamda har bir aytilgan fikrdan konkret, mushohadali xulosa chiqarishga imkon yaratadi [1, 256].

Maqollarni darsning maqsadiga qarab ingliz tilining barcha aspektlarida qo'llash mumkin. Ayniqsa, pastki sinflarda, ya'ni 5–6-sinflarda talaffuzni yaxshilash maqsadida quyidagi maqollarni o'rganish muhimdir. So'zning boshida kelgan unli harflarni aniq talaffuz qilish kerak bo'lgan maqollarni ko'proq takrorlash tavsiya etiladi.

Masalan:

After rain comes fair weather. – Yomg'irdan so'ng havo musaffo bo'ladi.

Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'.

Better early than late. – Kechdan ko'ra erta yaxshiroq.

Hechdan ko'ra kech yaxshiroq.

Ingliz tilida qo'sh unli diftonglarni talaffuz qilishni o'rganish uchun quyidagi maqollar tavsiya qilinadi:

Business before pleasure. – Hordiqdan oldin mehnat qil.

Dog does not eat dog. – Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.

Mavzularni o'rganishda yoki tanlangan mavzu bo'yicha kamida ikki yoki undan ortiq maqolni kiritish maqsadga muvofiqdir [3, 125]. Shu bilan birga, ularni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash imkoniyatini yaratish zarur. Har bir maqolning mazmuni alohida izoh bilan tushuntiriladi.

The beginning is half the work. – Ishni boshlash – yarim ish.

They must hunger in winter that will not work in summer. – Yozda ishlamagan kishi qishda och qoladi.

Good health is above wealth. – Yaxshi sog'lik boylikdan ustundir / Sog'lik – tuman boylik.

Speaking without thinking is shooting without aim. – O'ylamasdan gapirish – mo'ljalsiz o'tish demakdir.

The dogs bark, but the caravan goes on. – It hurar, karvon o‘taveradi.

Bu tipdagi mashqlar o‘quvchilarni mashg‘ulot davomida fikr yuritishga majbur qiladi va o‘rganilgan maqollar tez esdan chiqmaydi. Shu bilan birga, leksik mashqlarni takrorlash talaffuz va so‘z boyligini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilar og‘zaki nutq faoliyatida, informatsiyani qabul qilish, suhbat va mashg‘ulotlarda yangi so‘zlar bilan tanishish orqali diqqatini aktivlashtiradi va so‘zlarni tezroq o‘zlashtiradi.

Har bir maqol, qaysi tilda bo‘lishidan qat’i nazar, qadimdan xalq donishmandligi, aql zakovati, fikr va tushunchalarining ifodasidir. Maqolda aniq hukm va mantiqiy muhokama yotadi. Bu muhokamada xalq tarixi, maishiy hayoti, voqealar, xarakterli hodisalar va shaxslar xulq-atvori aks etadi. Shu jihatdan maqollar o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Buyuk rus tanqidchisi V.G. Belinskiyning ta’kidlashicha, “Maqol tildagi xalq fizionomiyasidir” [2, 79]. Ingliz tilida maqollarda bir xil so‘zlar va tovushlarning takrorlanishi odatiy hol bo‘lib, bu so‘zlarni eslab qolishda qulaylik yaratadi. Maqollardan foydalanish va ularni faol qo‘llash, chet tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, gapning tasirchanligini oshiradi. Xalq maqollarida do‘stlik va birodarlik, mehnat va shodlik, muhabbat va xijron kabi hissiyotlar ifoda topadi.

Inglizcha yoki boshqa tillardagi maqollarning o‘zbekcha muqobilini bera olish, ularning obrazli asosini va kontekstdagi stilistik funksiyasini saqlab qolish muhimdir. Bu esa chet tilini o‘rganish orqali ona tilidagi lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqollarni tarjima qilishda ularning obrazlilik yo‘qotilmasligi uchun original tildagi maqolga xos ekvivalent so‘z tanlash maqsadga muvofiqdir. Maqollarni qiyosiy o‘rganish esa tarjima jarayoni uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Tabiiyki, xalqning orzu va umudlarini, oliyjanob insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi, uzoq asrlardan buyon yashab kelayotgan maqollar bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Reference.

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani. – Toshkent: 2001. – 256
2. Белинский В.Г. Русские пословицы и поговорки. – М.: [Москва], [1985]. – [79].
3. Grzybek P. Proverb // Simple Forms: An Encyclopaedia of Simple Text-Types in Lore and Literature / Ed. W. Koch. – Bochum: Brockmeyer, 1994. – P. [124–129].
4. Amirqulov D. The TAQLID SO 'ZLARNING O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O 'RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.

